

**GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARDAGI HULQ-ATVOR
AGRESSIYASI MUAMMOSI VA UNING
YECHIMLARI**

Umarova Navbahor Shakirovna

psixologiya fanlari doktori.

Nizomiy nomidagi TDPU,

e-mail: navbaxor78@mail.ru

Sultanova Iftixor Baxtiyor qizi

Nizomiy nomidagi TDPUning

Pedagogika va Psixologiya fakulteti 1-kurs talabasi,

e-mail: iftixorsultanova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada globallashuv, uning yoshlar psixikasiga va jamiyat hayotiga ta'siri, yoshlar paydo bo'ladigan agressiyaning sabab va yechimlari haqida to'xtalibgina qolmay, balki uning yechimlari haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, psixika, agressiya, xulq-atvor, jamiyat.

ABSTRACT

This article not only talks about globalization, its impact on the psyche of young people and the life of society, the causes and solutions of youth aggression, but also about its solutions.

Keywords: Globalization, psychology, aggression, behavior, society.

Hozirgi kunda yer yuzida globallashuv jarayoni tez fursatlarda rivojlanmoqda. Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha "glob" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni

“dumaloqlashuv”, “kurrelashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlataladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma’nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiylar”, lotin tilida esa “globus”-“Yer shari” ma’nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma’noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi. Globallashuv atamasi birinchi bor 1960 yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergen. Ammo bu so‘zning to‘liq ma’nosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim C.Harlz Taz Rassel tomonidan to‘liq ochib berilgan. “Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev’yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo‘llangan. globallashuv yaxlit jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. A.Ochildevning ta’kidlashicha, “...eng umumiylar, globallashuv, bir tomonidan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun yer yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomonidan, ularning insoniyat taqdirliga dahldor ekanini anglatadi”. V.I.Danilov-Danil’yan esa “Globallashuv” ko‘proq mantiqdan emas, balki tarixiy paradigmadan kelib chiqqan so‘zdir. Globallashuv jihatlarining o‘zaro aloqadorligini aniq va ravshan tahlili mavjud emas”, - deb yozgan edi. Yuqorida ta’riflardan ko‘rinadiki, globallashuv jarayoni o‘zining murakkabligi va serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko‘rinishlarda mavjud bo‘lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro‘y bermoqda. Buning ayrim jihatlari mamlakatimiz uchun ijobjiy bo‘lsa, ayrimlari salbiy ta’sir etadi. Bu ayniqlas, ma’naviyatga yetarlicha zarar keltiradi. Albatta, bu jarayonlardan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Muammoning qay darajadaligidan qat’iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir. Globallashuv hayotimizga tez fursatlar Ichida kirib kemoqda, ushbu jarayon ikki

maqsadda o‘z ahamiyatini kasb etadi: ezbilik va yovuzlik. Ezgulik yo‘lida doim jamiyat va yoshlar ongingin rivojlanishiga hissa qo‘shar ekan. Shu bilan bir qatorda salbiy taraflarini ham namoyon etib kelmoqda. Ushbu salbiy taraflari yoshlar ongiga chetdan keladigan mafkuraviy g‘oyalarni berish, xulq-atvorini ijobiy darajadan uzoqlashtiradigan darajada o‘zgartirishi, miliy ma’naviyat tushunchasini yo‘qotilishi salbiy taraflarda aks etadi. Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma’naviy tahdidlarning bir ko‘rinishi bo‘lgan «ommaviy madaniyat» niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta’siri mamlakat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o‘tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil telefonlardan noto‘g‘ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma’naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e’tiborli bo‘lish, yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- yoshlarni ma’naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o‘yinlarining inson sog‘ligi, ma’naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta’sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim. Mavzuyimizning asosiy qismiga, yoshlardagi agressiya muammosiga to‘xtalar ekanmiz, agressiya - bu xatti-harakatlarning xavfli shakli. Bu juda katta, buzg‘unchi kuch ega xissiyot sanaladi. Hech bo‘limganda bunday odamlar shunday o‘ylashga odatlangan bo‘lishadi. Agressiv xulq - shaxsning ma’naviy buzuqlikka asoslangan, insonning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta’sir o‘tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan insoniylikka xos bo‘lmagan xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo‘lishi ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda yuz beradi, kamdan-kam hollarda genetika bilan bog‘liq.

Shaxsning o‘ziga qaratilgan tajovuzkorlik “autoagressiya” (bunday holat shaxsdagi patologik o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi) deb ataladi. O‘z joniga qasd qilish, o‘ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko‘rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo‘ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Agressiv xulq juda kuchli bo‘ladi. Biz agressiyani va uning oqibatlarini oldini olish uchun quyidagi profilaktika ishlarini olib borishimiz lozim: Avvalo yosh avlod keyinchalik jamiyat uchun psixologik yaxshi muhitni shakllantirish, turli konsultatsiyalar olib boorish. ”Xavfli guruuhlar” da autoagressiv harakatlar psixologik faktorlari diagnostikasini o‘tqazish, eksteremal holatlarni oldini olish uchun ma’naviy va psixologik bilimlarni shakllantirish. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, har qanday muhit insoniyat psixikasiga o‘z ta’sirini o‘tqazmay qo‘ymaydi. Ayniqsa ushbu globallashuv davrida turli axborotlarni ongimizga tezlik va chuqurlik bilan kirib borishi psixikamizga o‘z salbiy oqibatlarini ko‘rsatadi. Umuman olganda, agressiv xulq bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun, har qanday jamiyat maxsus choralarini ko‘rishga majburdir. Zero globalashuvni neytral holatda ushslash, ijobiy muhitni yoshlar atrofida yaratish, zamonaviy axborot olami haqidagi bilimlarni shakllantirilishi kelajak avlodni ham jismonan, ham ruhan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga, turli xil ko‘ngilsizliklarni oldini olishga hamda eng muhimmi har tamonlama yetuk ijtimoiy jamiyatni shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Umarov.B “Globalashuv ziddiyati”-T.: Ma’naviyat,2006.
- 2.Ochilidiyev.A “Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar” 2009.
- 3.Otomuratov S. “Globalashuv va millat”- Yangi asr avlodi, 2008.
- 4.Olimov L.Ya, M.B. Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. 2022.